

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raisi o‘rinbosari S.Eshmatovning 2022-yil may oyi uchun faoliyat
samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning
asosiy mezonlari

(hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va soliq qarzini qisqartirish masalalari)

Ehtiyojmand oilalarga ko‘rsatilayotgan ko‘makni monitoring qilish va doimiy daromad manbaini yaratish yo‘nalishida **2022-yil may oyida** 367 ta doimiy daromad manbai yaratildi. Bu belgilangan rejaga nisbatan 117,7%ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, **2022-yil may oyida** soliq qarzini o‘tgan oyga nisbatan 10 foiz qisqartirish choralari ko‘rish yo‘nalishida belgilangan reja 154,6% ga bajarildi. (reja 500 mlrd so‘m).

2022-yil may oyida “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni ro‘yxatdan chiqarish choralari ko‘rish bo‘yicha ishlarni bajarish darajasi 131,7 %ni tashkil etdi. Ya’ni 400 ga yaqin oila “Temir daftar”dan chiqarildi.

Yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish hisobiga daromad solig‘i to‘lovchilari sonini oshirish bo‘yicha reja 101,3%ga bajarilib 40 ming nafardan ortiq soliq to‘lovchi faoliyati rasmiy sektorga o‘tkazildi.

«Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta’minlanishi esa 100%ga bajarildi.